Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317765

tashkil etishni ko‘paytirish, ular faoliyatini rivojlantirishda interaktiv tizimdan samarali foydalangan holda amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Оптимизация транспортных расходов – важный фактор устойчивого развития экономики: проблемы и решения. Аналитический доклад Сентра экономических исследований. –Т., Но 09/2013, 49 с.
2. www.traceca-org.org
3. Jahon bankining logistik ko‘rsatkichlar indeksi yillik hisoboti ma’lumotlari 2021 y. https://lpi.worldbank.org/international/global.
4. Миротин Л.Б. И др. Эффективност логистического управления. Учебник для вузов /Под общ. ред. Д.т.Н., проф. Л.Б. Миротина. – М.: Издателство «Экзамен», 2019. – 448 с

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI XARID QILISH LOGISTIKASI RIVOJIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU AF, “Mutaxassislik, ijtimoiy - gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti,
e-mail: valijon60@bk.ru Tel:+998932785860
Aminova Farangiz Rustamovna
TDIU AF, “Bank ishi va audit” yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Jahonda globallashuv jarayoni tezlashib borayotgan bir vaqtda iqtisodiyotda logistika muhitini rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xaridini oshirishga ta’sirini baholash masalalari bo‘yicha muammolar amalga oshirilmoqda. Dunyoda logistika rivojlanishining umumiy indeksi (LPI-logistic performance index) yuritilib, unda Germaniya Federativ Respublikasi etakchi hisoblanadi hamda uning indeksi maksimal 5 balli mezonda 4,45 ballni tashkil etmoqda. Yetakchi mamlakatlar qishloq xo‘jaligi sohasining yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi Janubiy Koreyada – 2,7 %, Yaponiyada – 1,2 %, Xitoy-6.9% va Hindistonda – 17,4 % ni tashkil etmoqda[1]. Xorijiy mamlakatlar tajribasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xarid qilish logistikasini takomillashtirish va uni investitsiyalash turli mamlakatlarda iqtisodiy siyosat, geografik, demografik holatlari, urbanizatsiya va muayyan hududlarning umumiy infratuzilmasining rivojlanish darajasiga qarab turlicha amalga oshirilmoqda.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Aminova Farangiz Rustamovna (2025). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xarid qilish logistikasi rivojiga ta’sir qiluvchi omillar. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317765
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va muammolarni bartaraf etishdagi muhim va strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishda logistik jarayonlarni rivojlantirish, turli dastaklar yordamida qo‘llab-quvvatlash masalalari maydonga chiqadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishda logistikani ahamiyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

«Angren logistika markazi» AJ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 13 fevraldagi qarori bilan Farg‘ona vodiysi hududlarida joylashgan Qamchiq dovoni orqali avtomobilsozlik korxonalari va boshqa sanoat korxonalarining yuklarini uzluksiz tashishni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan.

Keyingi davrda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish masalasini yangi bosqichga olib chiqilishi natijasida faoliyat yuritayotgan logistik tadbirkorlik sub’ektlari 2021 yilga kelib 34,7 ming tani, oldingi yilga nisbatan esa 12,3 foizga oshdi va har ming kishiga to‘g‘ri keladigan logistik markazlar va tadbirkorlik sub’ektlari soni 16 tadan oshdi. Qishloq xo‘jaligini yalpi ichki mahsulotidagi ulishi 17,4 foizni, bandlikdagi ulushi esa 78 foizni, eksportdagi ulushi 28,7 foizni tashkil qildi[2]. Aholi bandligi va daromadlari o‘sishini ta’minlashda qishloq xo‘jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish dorlzarb yo‘nalish hisoblanadi[3].

Qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlari bozorida logistik jarayonlarni ta’mishlash bo‘yicha muhim tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida agrar sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va faoliyatini diversifikatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun tajriba-sinov tariqasida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib o‘tilgan[4].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida logistik jarayonlar ta’minlash, ta’sir qiluvchi asosiy omillarini aniqlash, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish mahsulot e tishtirish hajmi, eksport salohiyati, aholi bandligi va daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Hukumatimiz tomonidan meva-sabzavotchilik tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat zanjiri infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganligini inobatga olgan holda, sohada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish logistikasini takomillashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni mahsulot ishlab chiqarish bosqichlaridan kelib chiqqan holda uch bosqichda qarab chiqishni taklif qilmoqchimiz. Bular:

bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishiga bevosita hamda bilvosita ta’sirga ega bo‘lgan femer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatini tashkil qilishga ta’sir qiluvchi omillar;

qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi o‘zgarishlarning bozordagi sub’ektlari faoliyatiga ta’sirini inobatga olgan holda tarmoq logistikasiga ta’sir qiluvchi omillar;

bozordagi o‘zgarishlarni bevosita undagi logistik faoliyatida akslanishini inobatga olgan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozoriga ta’sir qiluvchi omillar;

Dastavval qishloq xo‘jaligida asosiy mahsulot e tishtiruvchi, sohada logistik faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyati, uni tashkil qilish, barqarorligini ta’minlashga ta’sir qiluvchi omillarga e’tibor qaratib o‘tmoqchimiz (1-jadval).

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasi faoliyatini tashkil qilish samaradorligi hamda uni ta’minlashga ta’sir qiluvchi omillar

Informatsion omillar	Ekologik omillar	Texnik va texnlogik omillar va boshqa xizmatlar	Ijtimoiy omil
xaridorlar bilan aloqa va teskari aloqa	Er va suvdan foyda-lanish intensivligi	Masxsus texnika vositalari bilan ta’minlanganlik	Qishloq aholisi soni va tarkibidagi o‘zgarishlar
Qishloq xo‘jaligi korxonalari va boshqa fermerlar, raqobatchilar bilan aloqalar	Tuproq eroziyasi va ekologik omillar ta’siri	Optimal agroximik me’yorlarni ta’minlash uchun agroximiya xiz-matlarini tashkil qilish	Agrar sohani erli aholi uchun jozibadorligini oshirish
AKT vositalari va ulardan foydalanish	Mahsulot ekologik sofligini ta’minlash	Mahsulotlarni saqlashning agroximik vositalari	Agrar sohada ishlovchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlari
Logistika bo‘yicha ko‘rgazma, yarmarkalar to‘g‘risida ma’lumot va ma’lumotlar bankini yaratish	Ekologik bilim, madniyat va etika	Ekish va mahsulot etishtirish-ning mavjud texonologiyalari va ularni takomillashtirish	Agrosug‘urtani xizmatlarini takomillashtirish
Logistik jarayonlarda AKTdan foydalanishini qo‘llab-quvvatlash	Ekologik sof mahsu-lotlarga talabni hisobga olish	Mahsulotlarni saqlash tashish, sotish xizmatlari va ularni takomillashtirish	Aholini hudud imkoniyatiga mos kasb-hunar egallashi, malakalarini oshirish va qayta o‘qitish

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasini tashkil qilish samaradorligi, muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi omillarni shartli ravishda oltita


guruhga ajratilgan holda qarab chiqilgan. Har qanday tadbirkorlik sub’ekti faoliyatini tashkil etish, samaradorligini ta’minlash bevosita tadbirkorning aqliy, jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy fikrlash salohiyatiga bog‘liq ekanligini inobatga olgan holda rahbarga xos bo‘lgan xususiyatlar, shuningdek, xo‘jalikning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari uning faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida qarab chiqilgan. Ushbu omillar faoliyat samaradorligini miqdor va sifat jihatdan oshishini ta’minlab, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bevosita xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida informatsion, ekologik, texnik va texnologik, ijtimoiy omillar hamda boshqa xizmatlar keltirib o‘tilgan.

Ikkinchi bosqichida qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga ta’sir qiluvchi omillar qarab chiqiladi. Chunki bozorning asosiy sub’ektlari bo‘lgan logistik faoliyati bevosita soha o‘sishi va barqarorligi, aksincha tarmoq holati esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistik rivojiga bog‘liq. Mazkur aks ta’sirni inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga ta’sir qiluvchi omillarni shartli ravishda 5 ta guruhga jamlagan holda qarab chiqishni taklif qilmoqchimiz (1-rasm).

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasiga ta’sir qiluvchi barcha omillar: ijtimoiy-logistik, iqtisodiy-logistik va bevosita ularning ikkalasi bilan bog‘liq bo‘lgan fan va texnologiya hamda logistika rivojini ta’minlovchi, er resursi logistikasi va tarkibi hamda ekologik-logistika omillar kabi guruhlarga ajratilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasiga boshqa mahsulotlardan farqli jihati shundaki unga ijtimoiy omillar ta’siri etarli darajada kuchli bo‘lib, iqtisodiyotning dastlabki shakllangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, aholi soni o‘zgarishi bir tomondan sohada faoliyat yuritishga qodir bo‘lgan ishchi kuchiga, boshqa tomondan mahsulotga talabni o‘zgarishiga ta’sir qiladi.

Iqtisodiy logistik omillar guruhiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular nafaqat qishloq xo‘jaligi balki iqtisodiyotning barcha sohalari rivoji va barqarorligini ta’minlashda muhim sanaladi. Biroq, qishloq xo‘jaligida rentabellik va samaradorlikning boshqa



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini harid qilish logistikasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

sohalarga nisbatan pastligi uni turli iqtisodiy dastak va vositalar bilan qo‘llab-quvvatlash zarurati yuqoriligini asoslaydi. Bu o‘z navbatida mahsulot etishtirish, realizatsiya qilish, bozordagi muvozanatni ta’minlashda iqtisodiy omillar (moliyaviy dastaklar, maksimal va minimal narx siyosatini yuritish kabilar)dan foydalanishni talab etadi.

Sohada rentabellik darajasini oshirish, innovatsion jarayonlarni tezlashtirish masalalari ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birgalikda qarab chiqishni talab qiladi.

Chunki innovatsion jarayonlarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda yuqori malakali ishchi kuchini bo‘lishi ham talab qilinadi. Natijada, o‘simlik va chorva seleksiyasi, biotexnologiya va gen injeneriyasi, yangi o‘g‘it turlari, sug‘orish tizimi va texnologiyasini yanada takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Er qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishdagi muhim asosiy vosita bo‘lib, tuproq unumdorligini parvarishlash natijasida oshirish imkoniyati er resurslari va uning tarkibiga ta’sir qiluvchi omillar guruhi shakllantirishni talab qiladi. Bundan tashqari soha eklogik o‘zgarishlarga yuqori ta’sirchan bo‘lib, qurg‘oqchilik, harorat va iqlim o‘zgarishi, namlikning yillik taqsimoti, vegetatsiya davridagi o‘zgarishlarni soha faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida shakllanishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bilan uning mahsulotlari bozorida logistik jarayonlarni rivojlantirish orqali o‘zaro aks ta’sirning mavjudligi yuqorida keltirilgan omillarni bilvosita logistik muhit rivojini ta’minlashga ta’siri mavjudligini asoslaydi. Shuningdek, bozor va bozor tizimiga yondoshuvlar bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra uning sub’ektlari ya’ni iste’molchilar va sotuvchilar orasidagi munosabatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ularni munosabatlarini tashkil qilish mexanizmi sifatida qaraladi. Bu esa bozordagi har qanday o‘zgarish uning qatnashuvchilar faoliyatida aks etishini izohlaydi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilish logistikasiga ta’sir qiluvchi qator omillar borki ularni bir vaqtni o‘zida ham ichki ham tashqi omillarga kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_countries_by_GDP_sector_composition
6. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni (https://lex.uz/)
9. Миротин Л.Б. И др. Эффективност логистического управления. Учебник для вузов /Под общ. ред. Д.т.Н., проф. Л.Б. Миротина. – М.: Издателство «Экзамен», 2019. – 448 с